

BIOLOGIYANI O'QITISH METODLARI: AMALIY METODLAR VA ULARNING TURLARI

Azizova Munisa Muxtor qizi

Termiz Davlat Pedagogika instituti 3-kurs talabasi.

azizova19092005@gmail.com

Turopova Muxlisa Barot qizi

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi.

turopovamuxlisa223@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17948757>

Annotatsiya. *Biologiya tirik organizmlar va ularning hayotiy jarayonlarini o'rganadigan tabiiy fan sifatida, talabalarda mantiqiy fikrlash, kuzatish, tahlil va eksperiment qilish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli biologiyani samarali o'qitish uchun nafaqat nazariy, balki amaliy metodlardan foydalanish zarur. Amaliy metodlar talabalarga fan mohiyatini amalda anglash, bilimlarni mustahkamlash va ilmiy tadqiqotga tayyorlash imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *kasbga yo'llash, kuzatish metodi, Biologik tajribalarni o'tkazish metodi, biologik tajribalar, o'simliklarni parvarish qilish, hayvonlarni boqish, ko'rgazmali, muammoli, og'zaki metodlar, darsdan tashqari ishiar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, ekskursiyalar.*

“METHODS OF TEACHING BIOLOGY: PRACTICAL APPROACHES AND THEIR TYPES”

Abstract. *Biology, as a natural science studying living organisms and their vital processes, contributes to the development of students' logical thinking, observation, analysis, and experimental skills. Therefore, effective teaching of biology requires the use of not only theoretical but also practical methods. Practical methods enable students to comprehend the essence of the subject in practice, consolidate their knowledge, and prepare for scientific research.*

Keywords: *career guidance, observation method, method of conducting biological experiments, biological experiments, plant care, animal husbandry, visual methods, problem-based methods, oral methods, extracurricular activities, out-of-class sessions, excursions.*

«МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЛОГИИ: ПРАКТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ И ИХ ВИДЫ»

Аннотация. *Биология, как естественная наука, изучающая живые организмы и их жизненные процессы, способствует развитию у студентов логического мышления, наблюдательности, аналитических и экспериментальных навыков. Поэтому для эффективного преподавания биологии необходимо использовать не только теоретические, но и практические методы. Практические методы позволяют студентам осмысливать сущность предмета на практике, закреплять знания и готовиться к научным исследованиям.*

Ключевые слова: *профессиональная ориентация, метод наблюдения, метод проведения биологических экспериментов, биологические эксперименты, уход за растениями, содержание животных, наглядные методы, проблемные методы, устные методы, внеклассная работа, внеурочные занятия, экскурсии.*

Metod soʻzi umumiy maʼnoda muayyan maqsadga erishish usulidir, maʼlum tarzda tartibga solingan faoliyatdir. Oʻqitish metodi oʻqituvchining bilimlar berish usuli va ayni paytda ularni oʻquvchilar tomonidan oʻzlashtirib olish usulidir. Metodning bu taʼrifi uning ikki bir-biriga bogʻliq tomonlari: bilim beruvchi, taʼsir qiluvchi-oʻqituvchi va qabu qiluvchi. Oʻzlashtiruvchi oʻquvchilarni ifodalaydi. Bu oʻzaro taʼsiri bilishning xarakteri bilim manbaiga bogʻliqdir. Oʻqitish metodlari tom maʼnoda oʻqituvchining bilimlarni oʻquvchilar ongiga yetkazish va ayni paytda ularni oʻquvchilar tomonidan oʻzlashtirib olish usulidir. Umumtaʼlim maktablarida biologiya kursini oʻqitishda ogʻzaki, koʻrgazmali va amliy metodlardan keng foydalanilib kelinmoqda.

Amaliy metod. Oʻquvchilarning oʻzlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotda qoʻllash, oʻquv va mehnat, koʻnikma hamda malakalarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini oʻstirish, hayotga tayyorlash, kasbga yoʻllash imkonini beradi. Ushbu metod oʻqitish jarayonida koʻrgazmali, muammoli, ogʻzaki metodlar bilan uygʻunlashgan holda qoʻllaniladi. Oʻquvchilar tomonidan bajariladigan amaliy ishlar bilim manbai boʻlib xizmat qiladi. Buning uchun oʻqituvchi amaliy ishlarning maqsadini aniqlashi, maqsadga erishish uchun zarur boʻladigan koʻrgazmali vositalarni tanlashi, oʻquv topshiriqlarini aniq tuzishi lozim. Amaliy ishlarni bajarish uchun beriladigan oʻquv topshiriqlari mazmunan aniq, ixcham, tushunarli va maqsadga yoʻnaltirilgan boʻlishi zarur.

Kuzatish metodi - bu tirik organizmlarda boradigan jarayonlar va tabiat jismlarida sodir boʻladigan hodisalarni oʻquvchilarning maqsadga muvofiq holda idrok etishi hisoblanadi. Bu metodda oʻquvchilarning kuzatishi boʻyicha toʻplangan maʼlumotlari bilim manbai sanaladi. Kuzatish metodidan biologiyani oʻqitishning barcha shakllarida foydalaniladi. Kuzatish metodidan dars jarayonida foydalanilganda oʻquvchilar dars mazmuniga oid koʻrgazma vositalarini mustaqil kuzatadilar, natijada kuzatish obʼektlaridagi oʻziga xos xususiyatlarni isbotlovchi dalillarga ega boʻladilar. Bunday kuzatish qisqa muddatli boʻlib, maʼlum bir maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mashq metodi – aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish koʻnikmalarini egallash yoʻlidagi koʻp marta takrorlanishlar boʻlib, mashqsiz koʻnikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas.

Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek, materiallar hamda vaqtni sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar oʻquvchilarning yuqori darajadagi faolligi asosida mustaqil ravishda tajriba va oʻlchash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi. Laboratoriyadan amaliy ishlarning farqishundaki, bu metod oʻquvchilarning mavjud nazariy bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yoʻnaltirilgan faoliyatini tashkil etishga xizmat qiladi.

Biologik tajribalarni oʻtkazish metodi – oʻz ichiga biologik obʼektlarni tanish va aniqlash, kuzatishlarni qamrab oladi, lekin mazmuni jihatdan ulardan farq qiladi. Biologik tajribalarni oʻtkazish oʻquvchilarni oʻrganilayotgan jarayon yoki hodisaning mohiyatini anglashga, ular oʻrtasidagi sabab-oqibat bogʻlanishlarini tushunishga, biologik qonuniyatlarni qayta kashf etilishiga imkon beradi. Tajriba natijalarini umumlashtirish, xulosa yasash, uni rasmiylashtirish oʻquvchilarda tadqiqotchilikni rivojlantiradi. Biologik tajribalar darsda, darsdan tashqari ishlarda, tirik tabiat burchagida va oʻquv tajriba maydonchasida oʻtkazilishi mumkin.

“Urug‘ning tarkibini aniqlash”, “O‘simlik hujayrasida plazmoliz va deplazmoliz”, “Amilazaning kraxmalga ta’siri” yuzasidan o‘tkaziladigan tajribalar qisqa muddatli, “Urug‘ning unib chiqishi uchun zarur shart-sharoitlar”, “Urug‘larning nafas olishi”, “Barglarning suv bug‘latishi”, “Barglarda kraxmal hosil bo‘lishi”, “Yomg‘ir chuvalchangining tuproq hosil bo‘lishidagi roli”, “O‘simliklarda belgilarning irsiylanish qonunlarini o‘rganish” kabi tajribalar uzoq muddatli tajribalar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Biologiya o‘qitish metodikasi” S.X. Sulliyeva, Q.G‘Zokirov Toshkent. 2021
2. Sh.Avazov “Amaliy kasbiy ta’lim metodikasi va texnologiyalari” Toshkent. 2014 - yil
3. Munavvarov A.Q. “Pedagogika” T. “O‘qituvchi” Toshkent 1996 - yil
4. X.Ibragimov, Sh.Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi. Toshkent. 2008y